

**VARIKOTSELENI DAVOLASHDA INNOVATSION ENDOVIDEOLAPAROSKOPIK
USULLARDA YONDOSHUV**

Salimov Shavkat Teshaeovich

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

*Respublika Bolalar kam invaziv va endovizual xirurgiya ilmiy-amaliy markazi
tibbiyot fanlari doktori, professor*

Berdiyev Ergash Abdullaevich

Tibbiyot fanlari nomzodi

Oliy toifali bolalar xirurgi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Respublika Bolalar kam invaziv va endovizual xirurgiya ilmiy-amaliy markazi

Ibragim Po'latovich Pirnazarov

Oliy toifali bolalar xirurgi

Respublika Bolalar kam invaziv va endovizual xirurgiya ilmiy-amaliy markazi

Fayziqulov Sardor

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

2-davolash ishi 508-B guruh talabasi

Annotatsiya: *Maqolada varikotseleni xirurgik usulda zamonaviy davolash jihatlari, ushbu patologiyaning turli xirurgik amaliyotlarning qiyosiy tavsifi, shuningdek shu kasallikga chalingan bemorlarni davolashni yanada optimallashtirish usullari keltirilgan. Videoendoskopik laparoskopiyani qo'llash bolalarda varikotsele kasalligini o'z vaqtida tashxislash va davolash imkoniyatini yaratadi.*

Kalit so'zlar: *bolalarda varikotsele, xirurgik davolash taktikasi, endovideolaparoskopiya*

Annotation: *The article presents aspects of the modern treatment of varicocele in a surgical way, a comparative description of various surgical practices of this pathology, as well as methods of further optimization of the treatment of patients with this disease. The use of videoendoscopic laparoscopy makes it possible to diagnose and treat varicocele disease in children in a timely manner.*

Keywords: *varicocele in children, surgical treatment tactics, endovideolaparoscopy*

Muammoning dolzarbligi: Varikotsele kasalligi o'smir bolalarda o'rtacha 2,7-30,7 % da kuzatilib, 50% gacha bepushtlikka sabab bo'lib, bu muammoni davolashda optimal yondoshuv talab etiladi [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7].

Tadqiqotning maqsadi: Varikotsele kasalligini davolash taktikasini takomillashtirib, innovatsion endovideolaparoskopik usullarini qo'llash.

Material va tekshiruv usullari: Respublika Bolalar kam invaziv va endovizual ilmiy-amaliy markazida 2011-2022 yillarda davolanishda bo'lgan 195 nafar bemor bolalar

davolash usullari tahlil qilindi. Varikotseleni darajalarini aniqlashda Yu.F.Isakov va A.P.Eroxin klassifikatsiyalaridan foydalanildi. UTT doplerografiyasi yordamida chap moyak venalarini varikoz kengayishi va uning darajalariga qarab tashxisga oydinlik kiritildi. 100% holatlarda varikotsele chap tomonlama uchradi. Ularni o'rtacha yoshi $13,6\pm 0,8$ ni tashkil etdi.

Bemorlar ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhga 86 nafar bemorlar bo'lib, ularda an'anaviy usulda operatsiya amaliyotlari bajarildi. Ikkinchi guruhda 109 nafar bemorlarda endovideolaparoskopik usulda xirurgik amaliyoti bajarildi. Bu amaliyotlarni bajarishda Karl Storz firmasini moslama uskunalardan foydalanildi.

Natijalar: An'anaviy usullarda bajarilgan xirurgik amaliyotlar o'rtacha 25 ± 5 minutni, endovideolaparoskopik usulda bajarilgan xirurgik amaliyotlar o'rtacha 20 ± 4 minutni tashkil etdi. Endovideolaparoskopik xirurgik amaliyotlarda operatsiyadan oldingi va keyingi davrlarda asoratlar kuzatilmadi, faqat an'anaviy usulda bajarilgan 1 nafar bemorda operatsion jaroxatidan qon ketish alomatlari kuzatildi.

Bemorlardagi og'riq sindromlarini aniqlash maqsadida anketalar shakllantirilib, chiqaruv epikrizi oldidan bu anketalar bemorlarga tarqatildi. Og'riq sindromlarini bemorlarda 3 chi va 7chi sutkalarida va operatsiyadan so'ng birinchi oylarida baholandi. Shu narsa aniq bo'ldiki, og'riq sindromlari 1 chi guruhdagi an'anaviy usullarda xirurgik amaliyot bajarilgan bemor bolalarda ko'proq kuzatildi, ikkinchi guruhdagi bemorlarda esa og'riq sindromlari kuzatilmadi.

Xulosa: Bolalarda varikotsele kasalligi videolaparoskopik usulida bajarilganda, operatsiya shikastini kamaytiradi, operatsiyadan keyingi qo'pol chandiqlar hosil bo'lish xavfini pasaytiradi, operatsiya amaliyotiga ketadigan vaqt va bemorning fizik aktivligining tiklanishi hamda yotoq-kunlarini kamaytiradi, bemorning hayot faoliyati yaxshilanadi, bepustlikni oldini oladi va yaxshi kosmetik samara qoldiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Yeroxin A.P. Varikoznoe rasshirenie ven semennogo kanatika (istoriya izucheniya i sovremennoe sostoyanie problemy) // Detskaya xirurgiya. 2001. – №1. – S. 16–20.
2. Stepanov E.A., Smirnov A.N., Dronov A.F., Poddubnyy I.V. i dr. Laparoskopicheskaya xirurgiya u detey i podrostkov — vozmojnosti i perspektivy. Xirurgiya. 2003; 7: 22—8.
3. Stalmaxovich V.N., Yurkov P.S., Mixaylov N.I., Galchenko V.M. Laparoskopicheskiy metod v lechenii varikotsele u detey // Detskaya xirurgiya. 1999. – №6. – S. 17–20.
4. NasYROV A.R., Sataev V.U. SYRYAK A.G. Alyagin V.G. Gumerov A.A. Smakov Sh.S., Yevdokimov V.V, Yerasova V.I., Zenkin M.A. endoskopicheskoe lechenie varikotsele i yego residivov u detey // Permskiy meditsinskiy jurnal. 2010. – T27. – №2. – S. 80–84.
5. Mirskiy V.E. Riщuk S.V. Zabolevaniya reproduktivnoy sistemy u detey i podrostkov (andrologicheskie aspekty): rukovodstvo dlya vrachey. SPb: SpesLit. 2012. – S. 130–137.